



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI



O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash

2018 yil 1 yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasida 5296 ta ambulatoriya poliklinika muassasasi mavjud bo'lib, ularning 51,8 foizini (2744 nafar) kichik tibbiyot korxonalarini va mikrofirmalar tashkil etadi. Ularning soni 1991 yilga (3027 nafar) nisbatan 1,7 martaga ko'paydi. Shu bilan birgalikda, shifoxona muassasalari soni aksincha 1,2 martaga kamaydi. 1991 yilda 1388 ta shifoxona muassasalari faoliyat yuritgan bo'lsa, 2017 yilda ularning soni 1135 tani tashkil etib, ulardan 43,4 foizi (493 nafar) kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan iborat bo'ldi (1-jadval).


1-jadval

Davolash-profilaktika muassasalari soni (1991-2017 yillar)

	1991 y.	1997 y.	2007 y.	2017 y.
Shifoxona muassasalari soni	1388	1230	1162	1135
Ambulatoriya poliklinika muassasalari soni	3027	4074	5810	5296



2017 yilda hududlar kesimida shifoxona muassasalari soni




1991 yilga nisbatan ambulatoriya poliklinika muassasalari quvvati 2017 yilda 46 foizga ko'paydi. 1991 yilda ambulatoriya poliklinika muassasalari bir smenada 282,2 ming kishini qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2017 yilga kelib 405,3 ming kishiga etdi. 2000 yilda kishi boshiga ambulatoriya poliklinika muassasalariga bir yilda o'rtacha 7 ta qatnovlar to'g'ri kelgan bo'lsa, 2017 yilda ushbu ko'rsatkich bir yilda kishi boshiga 9,5 qatnovni tashkil etdi.

2-jadval

**Ambulatoriya poliklinika muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari
(1991-2017yillar)**

	1991 y.	1997 y.	2007 y.	2017 y.
Ambulatoriya poliklinika muassasalari soni, birlik	3027	4074	5810	5296
Quvvati, bir smenada qatnovlar soni, birlik	287,1	353,5	414,5	405,3
10 ming aholiga nisbatan hisoblangan ambulatoriya poliklinika muassasalari quvvati	125,5	65,3	513,3	124,1
Ambulatoriya poliklinika muassasalariga qatnovlar soni, ming kishi	149359,0	193971,3	249919,9	306826,3

Respublika hududlari kesimida ambulatoriya poliklinika muassasalari soni va quvvati (2017 y.)



Mustaqillik yillarida, sog'liqni saqlash tizimi samaradorligini oshirish va maqbullashtirishga yo'naltirilgan islohotlarning amalga oshirilishi natijasida shifoxona muassasalari tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritildi. Natijada 2017 yilga kelib shifoxona muassasalari soni 1991 yilga nisbatan 18 foizga qisqardi. Shifoxona muassasalaridagi samarasiz shifoxona o'rinlari soni 1991 yilga nisbatan 48 foizga, har 10 ming aholiga nisbatan hisoblanganda esa 67 foizga kamaydi (4-rasm).

3-jadval


Aholining shifoxona o'rinlari bilan ta'minlanganligi darajasi dinamikasi (1991-2017 yillar)

	1991 y.	1997 y.	2007 y.	2017 y.
Shifoxona o'rinlari soni, ming o'rin	258,8	155,3	138,8	135,7
Aholining shifoxona o'rinlari bilan ta'minlanganligi, har 10 ming aholiga nisbatan	125,5	65,3	51,3	41,6

2017 yilda birinchi marta tashxisi aniqlanib ro'yxatga olingan kasal-liklar soni 16380,3 ming nafarni, har 10 ming aholiga nisbatan hisoblanganda ushbu ko'rsatkich 50574,4ni tashkil etdi (ris.4).


3-rasm

O'zbekiston Respublikasida 2017 yilda kasalliklarning asosiy sinflari bo'yicha aholining kasalliklarga chalinishi (jamiga nisbatan foizda)



Birinchi marta tashxisi aniqlanib ro'yxatga olingan kasalliklar tahlil qilinganda, 2017 yilda kasallanish tuzilmasida nisbatan yuqori foizlarni tashkil etgan nafas olish a'zolari kasalliklari 31,5 foizni, ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari 13,4 foizni, qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari, immun mexanizmiga aloqador ayrim buzilishlar 11,3 foizni, jarohatlanish, zaharlanishlar va ayrim tashqi sabablar bilan bog'liq asoratlar 6,8 foizni, siydik-tanosil tizimi kasalliklari 6,1 foizni, ichki sekretsiya bezlari kasalliklari, ovqatlanish va modda almashuvining buzilishi hamda qon aylanish tizimi kasalliklari 4,5 foizdan, qolgan 22,2 foiz boshqa kasallik sinflari o'rtasida 4,1-0,1 foiz oralig'ida tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholining kasalliklarga chalinishi (2017 yil)



Har 100 ming aholiga nisbatan hisoblangan kasallanishni hududlar bo'yicha taqsimlanganda nisbatan yuqori ko'rsatkich mamlakatning barcha hududlarida yashovchi aholi tibbiy kuzatuvdan o'tadigan respublikaning qator etakchi tibbiyot muassasalari (institutlari) joylashgan Toshkent shahri (106842,5) hissasiga to'g'ri keladi. Keyingi o'rinlarda har 100 ming aholiga nisbatan kasallanish holati Xorazm viloyatida 56206,8, Navoiy viloyatida 54485,9, Farg'ona viloyatida 54012, Andijon viloyatida 51763,8, Surxondaryo viloyatida 48650,9, Qoraqalpog'iston Respublikasida 47391,9, Sirdaryo viloyatida 43629,2, Namangan viloyatida 42751,5, Toshkent viloyatida 41550,1, Samarqand viloyatida 40431,1, Qashqadaryo viloyatida 39383,5, Buxoro viloyatida 39115,5 va hududlar o'rtasida eng kam kasallanish darajasi 43629,2 holat hamda har 100 ming aholiga nisbatan 35377,6 ga to'g'ri keladigan Jizzax viloyati etakchilik qiladi.

Yuqumli kasalliklar bilan kasallanish holatini tahlil qilinganda, bo'g'ma, bezgak, qizamiq, qizilcha kabi kasalliklarning umuman qayd qilinmaganligini alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1991 yilda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida 75 ming shifokor faoliyat yuritgan bo'lsa, 2018 yil 1 yanvar holatiga ularning soni 85,4 ming kishini (14 foizga o'sgan) tashkil etdi. O'rta tibbiyot xodimlari soni esa 1991 yilga (242,2 dan 348,2 ming kishigacha) nisbatan 44 foizga ko'paydi. 1- jadval ma'lumotlari bo'yicha har 10 ming aholiga nisbatan hisoblanganda shifokorlar soni 35,5 (1991y.) dan 26,1 (2017y.) gacha, o'rta tibbiyot xodimlari soni esa mos ravishda 114,7 (1991y.) dan 106,6 (2017y.) gacha kamaygan.

4-jadval

Aholining tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanishi (1991-2017 yillar)


	Jami shifokorlar soni (ming)	Har 10 ming aholiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni	Jami o'rta tibbiyot xodimlari soni (ming)	Har 10 ming aholiga to'g'ri keladigan o'rta tibbiyot xodimlari soni
1991 y.	75,0	35,5	242,2	114,7
1995 y.	76,2	33,2	249,6	108,9
2000 y.	81,5	32,8	259,7	104,7
2005 y.	76,5	29,1	271,0	103,0
2010 y.	79,9	27,4	310,2	106,5
2017 y.	85,4	26,1	348,2	106,6

5-jadval

Bir nafar shifokor va bir nafar o'rta tibbiyot xodimiga to'g'ri keladigan aholi soni (1991-2017 yillar)

	1991y.	1997y.	2007y.	2017y.
1 nafar shifokorga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi	281	291	352	382
1 nafar o'rta tibbiyot xodimiga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi	87	93	97	94

Shifokorlarning malaka toifalari bo'yicha taqsimlanishi, foizda



5 – rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinadiki shifokorlarning 34,0 foizini (2017 yil) oliy toifali shifokorlar tashkil etadi. Shuningdek, keltirilgan rasmda ish staji 5 yildan kam bo'lgan toifasiz shifokorlar ulushi tendensiyasi kamayishi kuzatiladi.

Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish statistikasi boshqarmasi

Mas'ul: X.Murodxo'jaev

Tel: 71 230-80-69